

KORXONALARDA MAHSULOT SIFAT KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH

Mirboboyev Muhammadjon Vohidjon o'g'li

Farg'ona Politexnika Instituti, 75-20 M guruh talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada korxonalarning sifat ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar asosida korxonalar faoliyati sifat ko'rsatkichlarini oshirishning iqtisodiy mexanizmlari keltirilgan. Shuningdek, sifat ko'rsatkichlarini oshirishning xorijiy tajribalari asosida tahlil qilingan. Jahon mamlakatlaridagi korxonalarda sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan e'tibor, har bir kompaniya iste'molchilar didi, bozor muvozanatini va iqtisodiyotni me'yorlashtirish, mahsulot sifatini oshirish, xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilash masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Korxonalar, iqtisodiyot, mahsulot sifati, sifatni boshqarish, sertifikatlash, korxonalarda sifatni oshirish*

Belgilangan mahsulotlarning sifati ko'rsatkichlarining nomenklaturasini tanlash, bu ko'rsatkichlarning qiymatini aniqlash va ularni asos bo'luvchi qiymatlar bilan taqqoslashni o'z ichiga oluvchi ishlarning yig'indisi mahsulot sifatining darajasini baholash deb ataladi.

Zamonaviy sharoitda Sifat masalalari hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida insoniyatning hayot tarzini, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xavfsizlik omillari dolzarb ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda bozor iqtisodiyotida va unga o'tish davrida jamiyat rivojlanishining barqarorligi va iqtisodiy turg'unligini ta'minlovchi omil tarzida ham ko'riladi.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 1 maydagi "Sanoat kooperatsiyasini yanada rivojlantirish va talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq tashkil etilgan mazkur tadbir 18 noyabr kuni boshlangan edi. Unda mingga yaqin korxonalar, kompaniya va firmalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari 10 mingdan ortiq turdagi mahsulotlari bilan qatnashmoqda.

Ishtirokchilar sanoat korxonalarining eksportbop va import o'rnini bosuvchi mahsulotlari, ularning sifat va texnik ko'rsatkichlari, ulgurji va chakana narxlari, korxonalarining mavjud quvvatlari kabi ma'lumotlar bilan tanishmoqda. Bu mahalliy va xorijiy bozorlarda talab yuqori bo'lgan mahsulotlarni o'rganish, ularni ishlab chiqarish va sotib olish bo'yicha hamkorlar topish, kichik biznes sub'yektlarini sanoat faoliyatiga keng jalb etishda muhim omil bo'lmoqda.[1]

Davlatimizda korxonalaridagi mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablar va bu talablar qayerlarda qo'yiladi;[2]

Tovar sifatiga qanday talablar qo'yiladi?



Mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablar ko 'pincha iste'molchining o'zi va atrof-muhit uchun salbiy oqibatlarsiz maqsadli foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan xususiyatlar (xususiyatlar) ro'yxati sifatida tushuniladi.

- Mahsulot xavfsizligi - bu talab "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida" gi qonun qoidalariga muvofiq belgilanadi. Bu tovarlarni ishlatishxavfsizligi, ularni ishlab chiqarish, saqlash va yo'q qilish kabi komponentlarni nazarda tutadi.

- Atrof-muhitga do'stlik - bu u yoki bu tarzda xavfsizlik bilan umumiy narsaga ega bo'lgan talab. Bu mahsulot atrof-muhitga hech qanday zarar keltirmasligi kerakligini anglatadi,

- O'zaro almashinish - ushbu turdagi mahsulotni ishlab chiqarish yo'qligi yoki mumkin emasligi, shunga o'xshash mahsulotlar uchun shart - sharoitlar yaratilishi kerak

- Moslik- bir mahsulotdan foydalanish boshqasidan foydalanishga to'sqinlik qilmasligi kerak.

Tovar Tovarlar sifatiga sifatiga qo'yiladigan talablar qayerda?

Tovar sifatiga qo'yiladigan talablar ro'yxati bir qator normativ- huquqiy hujjatlarda mavjud. Avvalo, ular davlat standartlari bilan belgilanadi. Ushbu standartlarda mavjud bo'lgan shartlar mahsulotga qanday xususiyatlar xos bo'lishi kerakligi haqida ma'lumot beradi.

Bundan tashqari, tovar mos kelishi kerak bo'lgan shartlar ham Fuqarolik kodeksida mavjud. Oo'shimcha talablar kelishuv asosida belgilanishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, tegishli shartnomani imzolashda tomonlardan biri (yoki ularning har biri) tovarlar sifatiga taalluqli qo'shimcha shartlarni kiritishni taklif qilishi mumkin.

Mahsulot sifati talablariga rioya qilmaslik oqibatlari;

Agar oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha berilgan tovarlar belgilangan sifat ko'rsatkichlariga mos kelmasa, nuqsonlar aniqlangandan so'ng darhol iste'molchi o'z gonuniy manfaatlarini tiklashni talab qilishga haqli.

Mavjud muammo va yechimlar:

Hozirgi kunda mamlakatimiz sanoat tizimidagi birinchi va eng dolzarb bo'lgan muammo bu - sifat boshqaruvini biznes strategiyasining bir qismi deb qaralmasligidir. Tan olish kerakki ayrim korxonalar va tashkilotlar asosiy urg`uni foydani oshirish, marketing ishlariga qaratadilar, va o`z navbatida mahsulot sifatiga, sifat boshqaruviga bog`liq masalalar shundayligicha qolib ketaveradi. Aslida esa mahsulot sifatini oshirmasdan turib hech qanday natijaga erishish mumkin emas. Past sifatli yoki nomuvofiq mahsulotlar daromadni yo'qotishi, tovar qiymatini kamaytirishi, xarajatlarni oshirishi va samaradorlikni kamaytirishi mumkin. Haqiqatan ham sifatni yaxshilashni xohlaydigan korxonalar tashkilotning har bir jabhasini qamrab oladigan sifatga yo'naltirilgan kompaniya madaniyatini yaratish uchun vaqt va pul sarflashlari kerak. Ishlab



chiqarilgan mahsulot qanchalik raqobatbardosh bo'lsa, bozorga kirib borishi shunchalik oson bo'ladi. Lekin ayrim hollarda bu masalaga ikkilamchi jarayon kabi baho berayotgan tashkilotlar ham bir talay. Bunga asosiy sabab "sifat menejmenti mahsulotlarni loyihalashtirmaydi, ishlab chiqarmaydi yoki sotmaydi" deb qaralishidadir. Ushbu mentalitet tufayli ko'plab korxonalar o'z resurslaridan foydalanayotganda sifatni umuman hisobga olmaydi. Ularning nazdida, sifat boshqaruvini takomillashtirish haqida hattoki fikr yuritish ham no'rindir. Bunday dunyoqarash bilan sifatni modernizatsiya qilish u yoqda tursin bu jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yib olish ham juda mushkul vazifadir. Sifatni boshqarishni elektron tarzda ishlab chiqish ko'plab korxonalar uchun keraksiz bir xarajat sifatida ko'rilib, an'anaviy tizimni maqullash holatlari ko'p kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini sekinlashtiradi. Ushbu muammoga asosiy yechim qilib korxonalar rahbarlarining strategik menejment borasidagi bilimlarini mustahkamlashni, sifat to'g'risida kengroq tushunchaga ega bo'lishni, menejerlarning bilim salohiyatini oshirishni ko'rsatishimiz mumkin. Mahsulot ishlab chiqaruvchi firmalar jahon tajribalariga asoslangan holda tashkiliy struktura ishlab chiqsalar maqsadga muvofiq bo'lar edi.

"O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq, O'zbekiston Texnik jihatdan tartibga solish agentligiga, eksport qiluvchi korxonalarda va sanoat mahsulotlarini xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashda mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy tizimlarini keng joriy etish vazifasi yuklangan bo'lib, uning doirasida Agentlik:

- Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda korxonalarda zamonaviy sifat menejmenti tizimlarini joriy etish jadvallarini tasdiqlaydi va ularning amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha nazoratni amalga oshiradi;

- Eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarni xalqaro standartlarga muvofiq, shu jumladan, xalqaro darajada e'tirof etilgan muvofiqlikni baholash organlarini jalb etgan holda sertifikatlashtirish ishlarini tashkil etadi;

- Xalqaro standartlarga muvofiq sifat menejmenti tizimlarini joriy etishning afzalliklarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borishni amalga oshiradi;

- Sifat menejmenti tizimini joriy qilgan korxonalar ro'yxatini yuritadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 20 noyabr kuni “O‘zekspomarkaz” milliy ko‘rgazmalar majmuasida o‘tayotgan O‘zbekiston sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi bilan tanishdi.
2. O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi to‘g‘risidagi Nizom.
3. www.lex.uz
4. Sifat, sertifikatlashtirish va sertifikatlash iqtisodiyoti: usul. amaliyot uchun ko‘rsatmalar. Ish / komp. Y.G. Malakova; Sib. davlat aerokosmik. Un-T. Krasnoyarsk, 2017yil.38 b.
5. Sifat menejmenti: ma‘ruza matnlari / E. M. Bely, I. B. Romanova-Ulyanovsk, ulgu, 2017. 86 b.